
Yangi yil ayyomi arafasida yo'qlov tadbirlari davom etmoqda

Bugun Qo'shtepa tumani hokimi A.Abdullayev va sektor rahbarlari, tuman hokimi o'rinbosarlari tumanimizda joylashgan shifoxonalarda bo'lib, bemorlar holidan xabar olishdi.

Tuman markaziy shifoxonasidagi bolalar, tug'uruq va chaqaloqlar patologiyasi bo'limlari hamda Langar bo'limda davolanyotgan bemorlarga sektor rahbarlari va hokim o'rinbosarlari tomonidan bayram sovg'alari hamda tuman hokimining tabriknomalari topshirildi.

Shuningdek, doshqozonda osh damlanib kasalxonadagi barchaga tarqatildi.

Tuman hokimi yangi yil bayramini shifoxonada kutib olayotgan bemorlar va ularning yaqinlariga dalda berib, tezroq sog'ayib ketishlarini tiladi.

Mazkur yo'qlovdan dardiga davo izlab, muolaja olayotgan barcha bemorlarning yuziga tabassum yugurdi.

2024-12-31 13:47:01